| <a href="#">Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова</a>                                                                                                                       |     |
| Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов .....                                                                                                          | 211 |
| <a href="#">Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева</a>                                                                                                                           |     |
| Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников .....                                                                                         | 216 |
| <a href="#">Джалилова Феруза Намазовна</a>                                                                                                                                 |     |
| Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni .....                                                                                                 | 219 |
| <a href="#">Zuhriddin Azizov</a>                                                                                                                                           |     |
| Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка<br>(на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США) .....                              | 222 |
| <a href="#">Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.</a>                                                                                                               |     |
| Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста .....                                                                                      | 227 |
| <a href="#">Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова</a>                                                                                                                           |     |
| Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar .....                                                                                                      | 231 |
| <a href="#">Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</a>                                                                                                                                |     |

# O'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Ashurov Ramzidin Ramazonovich

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
"Amaliy psixologiya" kafedrası dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID 0009-0002-4627-532X

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlovchi psixologik omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari, tafakkur operatsiyalari, motivatsiya va emotsional barqarorlik kabi psixologik xususiyatlarning intellektual rivojlanish jarayonidagi o'rni ochib berilgan. Empirik tadqiqot natijalari o'quv faoliyatining mazmuni, psixologik muhit va individual yondashuv intellektual rivojlanish samaradorligini belgilovchi muhim omillar ekanini ko'rsatadi. Maqola natijalari ta'lim jarayonini psixologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** intellektual rivojlanish, o'quvchi psixologiyasi, kognitiv qobiliyatlari, tafakkur operatsiyalari, motivatsiya, emotsional barqarorlik.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the psychological characteristics underlying students' intellectual development. The study examines the role of cognitive abilities, thinking operations, learning motivation, and emotional stability in shaping intellectual growth. The empirical findings indicate that the content of learning activities, the psychological learning environment, and an individualized approach are key factors influencing the effectiveness of intellectual development. The results contribute to the improvement of psychological and pedagogical support in educational practice.

**Key words:** intellectual development, student psychology, cognitive abilities, thinking processes, learning motivation, emotional stability.

**Аннотация:** В статье представлен научный анализ психологических особенностей интеллектуального развития учащихся. Рассматривается роль когнитивных способностей, мыслительных операций, учебной мотивации и эмоциональной устойчивости в процессе формирования интеллекта. Результаты эмпирического исследования свидетельствуют о том, что содержание учебной деятельности, психологический климат и индивидуальный подход являются ключевыми факторами эффективности интеллектуального развития учащихся. Материалы статьи могут быть использованы для совершенствования психолого-педагогического сопровождения образовательного процесса.

**Ключевые слова:** интеллектуальное развитие, психология учащихся, когнитивные способности, мыслительные операции, учебная мотивация, эмоциональная устойчивость.

## KIRISH

Jahonda yuqori darajadagi intellektual imkoniyatlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tobora ko'proq talab qilinmoqda, salohiyatli kadrlarning bilim poydevori bevosita maktab davrida qo'yilgan tamal toshiga bog'liqdir. O'quvchilarning intellektual rivojlanish masalasi psixologik-pedagogik yondashuvlarning hozirgi kundagi asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Maktab ta'limi kognitiv funktsiya sifatida ilmiy bilimlar tizimini ilmiy bilish usullari bilan qurollantirish bilan bir qatorda rivojlanuvchi funktsiyani ham amalga oshirishi kerak - o'quv subyektlari yordamida shaxsning individual resurslarini murakkablashtirish, kengaytirish imkoniyatini yaratmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Maktab va maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish" alohida takidlangan. Mashg'ulotlarni multimedia vositalari asosida tashkil etish, pedagogik muloqot sharoitida ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi.

1 <http://lex.uz/uz/docs/5841063> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, voqelikka maksimal darajada moslashtirish maqsadida hukumat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XXI asrda inson kapitalini shakllantirishda boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish – nafaqat metodik yondashuv, balki pedagog shaxsining psixologik fazilatlariga ham bog'liq. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosati asosida, ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy salohiyatiga yuksak talab qo'yilmoqda.

Ko'plab maktablarda pedagogning psixologik tayyorgarligi bilan o'quvchilarning intellektual rivoji o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu holat emotsional barqarorlik, empatiya va reflektiv yondashuv kabi fazilatlarining etishmasligida aks etadi.

Pedagog shaxsi ta'lim jarayonining markaziy va hal qiluvchi omili hisoblanadi. U nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchi shaxsining intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi psixologik yetakchidir. Pedagogning mas'uliyatlilik, adolatlilik, empatiya, ochiqlik va emotsional barqarorlik kabi shaxsiy fazilatlar o'quvchilarda bilimga qiziqish, mustaqil fikrlash va o'ziga ishonchning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, pedagogning kasbiy refleksiya va o'z ustida ishlashga tayyorligi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Psixologik jihatdan yetuk, muloqotga ochiq va tarbiyaviy mas'uliyatni chuqur anglagan pedagog shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratadi hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishiga imkon beradi. Shu bois pedagog shaxsi ta'lim samaradorligining fundamental omili sifatida ilmiy va amaliy jihatdan doimiy e'tiborda bo'lishi lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini chuqur anglash, mavjud yondashuvlarni solishtirish hamda mualliflik pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Quyida pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yorituvchi muhim adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Sharq mutafakkirlarining intellekt (aql) haqida bir qancha qarashlari mavjud bo'lib ular nafaqat sharqda, balki g'arbda ham ilmiy nazariy jihatdan o'rganilib kelinmoqda. O'rta Osiyoning emas, balki yaqin va o'rta sharqning mashhur allomasi Abu Nasr Forobiydir. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi shoiri va qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U aql haqida risola asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. U "Aql haqida risola" asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida bir qancha ma'lumotlarni keltiradi. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglashi, tabiat sirlarini anglashida ilm- fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. U inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganidan mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, Forobiyning fikricha, mavjudodning eng buyuk va yetuk mahsuli bu insondir, u o'zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o'rab olgan mavjudodning mohiyatini tushunadi uning fikricha inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug'ilishidan mavjud lekin aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksakligining yetuk mahsuli bo'ladi va inson o'z bilimlarini aqlini rivojlantirib, so'ngra mavjudodning ibtidosi boshlanishi haqidagi ilmga etib boradi deb ko'rsatadi.

Forobiy o'simlik, hayvon va insonga hos xususiyat va qobiliyatlarini quvvat deb atadi va ularni uchga ajratadi uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizmdagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixologik va fikrlash jarayonlariga ajratadi. Biologik jarayon barcha tirik organizmga fiziologik-psixologik jarayon hayvonlarga, aqliy jarayon ong faqat insonga xosdir.

Abu Rayhon Beruniy ham o'z asarlarida insonning barcha mavjudotdan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligini izohlaydi. Shuning uchun ham unga yerdagi barcha hayvonlar bo'ysunadi, aks holda inson eng kichik hayvondan ham o'jiz bo'lar edi.

Beruniy tashqi olamni bilishni asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotdan ustun turishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, aql hodisalarning birini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo'q va hamma bilimni tez egallashi mumkin emas. Shuning uchun, inson o'zi bilib olgan narsa bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o'rganishga intilishlari shart. Ularning fikricha inson bilish tushuninish fikrlash muhokama qilish o'ylab topish kabi iste'dodlarga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual rivojlanish omillari masalasi bo'yicha ko'plab o'zbek va xorij olimlari tomonidan o'rganilgan. Aqliy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, o'quvchilarda kreativ fikrlash bilan bog'liq masalalar hamma davrlarda ham jamiyat olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolgan. Intellektual jihatdan rivojlanish shaxsning barcha hayotiy faoliyatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fikrimizga misol





tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, aynan biz tadqiqot olib borayotgan o'quvchilarning intellektual jihatdan rivojlanganligi o'quv faoliyati, shaxsiy rivojlanishi jabhalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanish masalasi bevosita ta'lim tizimidagi yangi ta'lim metodlari, innovatsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

M.G.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog'lab o'rgangan. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o'zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilishni ta'minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o'sishi ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi. O'sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy faollikni va uning negizida yotuvchi ijodiy qobiliyatni shakllantirish respublika maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki "hozirgi maktabning asosiy vazifasi ta'lim metodlarini, o'quvchilarning fikrlashlarini taraqqiy ettirish metodlarini takomillashtirishdir".

E.G'.G'oziyev O'zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko'ra, inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. "Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak".

E.G'.G'oziyev aqliy taraqqiyotning o'sishini maktabda olinadigan bilimlar ta'minlaydi, deb hisoblaydi. O'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirish uchun ularni faqat bilimlar tizimi bilangina emas, balki muayyan aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, turkumlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, esda olib qolish va boshqalar) o'quv, ko'nikma va malakalarni ko'zda tutish kerakligini ta'kidlaydi. O'quvchilar aql-zakovatini kamol toptirishda mantiqiy tafakkurning ahamiyati katta, chunki tafakkurning rivojlanishi aqlni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitadi [2].

B.R.Qodirov iste'dodga quyidagicha ta'rif beradi: "iste'dod bilim, ko'nikma yoki malaka emas, balki, aynan shu bilim va malakalarni o'rganish, o'zlashtirishni yengillashtiradigan, tezlalashtiradigan va shuning evaziga muvafaqqiyatni ta'minlaydigan ichki imkoniyatlar majmuasiga aytiladi" [5].

Z.T.Nishonova o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o'rgangan. Z.T.Nishonova ijodiy psixologiya asoschisi Dj.Gilfordning intellektual struktura modeliga asosanib, aqliy qobiliyatlarni uch o'lchovga, ya'ni, aqliy jarayonlar, aqliy qoniqish va aqliy natijalarga bo'ladi [6].

Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o'zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog'liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial- sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda deskriptiv statistika, pearson korrelyatsiya koeffisienti, ANOVA, SPSS 26 dasturi Ravenning progressiv matritsalar testidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan empirik natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishi yoshga oid psixologik qonuniyatlar asosida bosqichma-bosqich shakllanishini yaqqol namoyon etdi. Dj. Ravenning "Progressiv matritsalar metodikasi" yordamida aniqlangan ko'rsatkichlar o'quvchilarning abstrakt-mantiqiy tafakkuri, tahlil va sintez qilish qobiliyati hamda umumlashtirish operatsiyalarining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

1-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellekt darajasi statistikasi (Styudent t-mezoni bo'yicha) N=205

| Respondentlar       | N   | M    | SD   | t      |
|---------------------|-----|------|------|--------|
| 2-sinf o'quvchilari | 85  | 3.40 | 0.95 | 5.54** |
| 4-sinf o'quvchilari | 120 | 4.06 | 1.16 |        |

Izoh: \*p < 0.05; \*\*p < 0.01; \*\*\*p < 0.001

M – O'rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og'ish, t-statistik farq ko'rsatkichi



Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2-sinf o'quvchilarida intellekt darajasining nisbatan pastroq bo'lishi ( $M = 3.40$ ) ularning tafakkuri asosan konkret-obrazli fikrlash bosqichida ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu yosh davrida o'quvchilar ko'proq vaziyatga emotsional munosabat bildiradi, qaror qabul qilishda esa intuitiv yondashuv ustunlik qiladi. Bu holat ularning har bir vaziyatni chuqur tahlil qilishdan ko'ra, tezkorlik va moslashuvchanlik orqali muammoni hal qilishga moyilligida namoyon bo'ladi. Psixologik nuqtai nazardan, bu yoshda divergent fikrlash unsurlari shakllanayotgan bo'lsa-da, u hali tizimli va barqaror xarakter kasb etmagan.

4-sinf o'quvchilarida esa intellekt darajasining sezilarli oshgani ( $M = 4.06$ ) kuzatildi. Bu ko'rsatkich ularning tafakkuri asta-sekin mantiqiy-operatsional fikrlash bosqichiga o'tayotganidan dalolat beradi. Ular muammoni hal etishda sabab-oqibat aloqalarini anglash, vaziyatni tahlil qilish va bir nechta yechim variantlarini solishtirish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi. Ayniqsa, statistik jihatdan ishonchli farqning aniqlanishi ( $t = 5.54$ ;  $p < 0.01$ ) intellektual rivojlanishning yoshga bog'liq dinamikasini tasdiqlaydi.

Shuningdek, past intellekt darajasining kichik foizlarda uchrashi o'quvchilarning shaxsiy-ijtimoiy sifatleri – kirishimlilik, muloqotga ochiqlik va emotsional moslashuvchanlik bilan kompensatsiya qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. Psixologiyada bu holat kompensator mexanizmlar orqali izohlanadi, ya'ni o'quvchi intellektual cheklavlarni ijtimoiy faollik va kommunikativ qobiliyatlar hisobiga qisman bartaraf etadi.

Nazorat guruhidagi o'quvchilarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun nafaqat kognitiv mashqlar, balki unga ta'sir etuvchi psixologik omillar – motivatsiya, o'z-o'zini baholash, refleksiya va emotsional barqarorlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki intellekt faqat bilim hajmi bilan emas, balki shaxsning o'quv faoliyatiga ongli munosabati va ichki psixologik resurslari bilan ham belgilanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual rivojlanish jarayoni murakkab, ko'p omilli va dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatib, pedagogik-psixologik ta'sirlarni yosh va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan empirik va nazariy tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishi ko'p omilli psixologik-pedagogik jarayon ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarning intellekt darajasi nafaqat yoshga bog'liq rivojlanish qonuniyatlari, balki ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi, tafakkur operatsiyalarining shakllanganlik darajasi hamda ijtimoiy-psixologik muhit bilan bevosita uzviy aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Dj. Ravenning "Progressiv matritsalar" metodikasi asosida olingan natijalar 4-sinf o'quvchilarida intellektual rivojlanish ko'rsatkichlarining 2-sinf o'quvchilariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi. Bu holat boshlang'ich ta'lim jarayonida tafakkurning konkret-obrazli bosqichdan mantiqiy-operatsional bosqichga bosqichma-bosqich o'tishini ko'rsatadi. Shuningdek, divergent fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda moslashuvchan va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini kuchaytirishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, intellektual rivojlanish jarayonida pedagog shaxsining psixologik yetukligi, o'quvchilarga nisbatan qo'llaniladigan individual yondashuv hamda qulay psixologik muhitning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Intellekt darajasi pastroq bo'lgan o'quvchilarda kommunikativ faollik, kirishimlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik orqali kompensator mexanizmlarning namoyon bo'lishi esa intellekt tushunchasining faqat kognitiv ko'rsatkichlar bilan cheklanmasligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual rivojlanishni shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va psixologik-pedagogik jihatdan muvofiqlashtirilgan ta'sirni talab etishini ilmiy xulosa sifatida asoslab berdi.

### Takliflar:

- Boshlang'ich ta'lim jarayonida intellektual rivojlanishni diagnostika qilish tizimini kuchaytirish:** O'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini muntazam baholash maqsadida Dj. Raven metodikasi bilan bir qatorda divergent fikrlash, mantiqiy tafakkur va refleksiv qobiliyatlarni aniqlovchi psixodiagnostik vositalarni kompleks qo'llash tavsiya etiladi.
- Pedagoglarning psixologik kompetentligini oshirish:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorlik, empatiya, refleksiya va individual yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur.
- Divergent va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'quv mashg'ulotlarini kengaytirish:** O'quv jarayonida muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, ochiq savollar va mantiqiy masalalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning intellektual faolligini oshirishga xizmat qiladi.



4. **Past intellekt ko'rsatkichlariga ega o'quvchilar bilan individual-korreksion ishlarni yo'lga qo'yish:** Psixolog va pedagog hamkorligida individual rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilib, unda o'z-o'zini baholash, motivatsiya va emotsional regulyatsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.
5. **Ota-onalar bilan psixologik-ma'rifiy hamkorlikni kuchaytirish:** Oila muhitining intellektual rivojlanishga ta'sirini inobatga olgan holda, ota-onalar uchun psixologik seminarlar va maslahatlar tashkil etish, ularning farzand rivojiga ongli yondashuvini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy istiqbollarni belgilash: Intellektual rivojlanishning shaxs motivatsiyasi, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuv bilan o'zaro aloqadorligini o'rganishga qaratilgan keng qamrovli longitudinal tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. John, O. P., & Srivastava, S. (1999). The Big Five Trait Taxonomy: History, Measurement, and Theoretical Perspectives.
2. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent. "O'qituvchi" – 1991, 122-123-b.
3. Raven, J. C. (2000). Manual for Raven's Progressive Matrices and Vocabulary Scales.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
5. Qodirov B.R. "Sinf zukkolarini tanlash metodikasi". T, 1998 y.
6. Nishonova Z.T. Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi.diss. T.: TDPI. 1993.
7. Битянова, М. Р. Работа с ребенком в образовательной среде: решение задач и проблем развития. Научно-методическое пособие для психологов и педагогов / М. Р. Битянова.- М.: МГППУ, 2007. – 96 с.
8. Ramazonovich, A. R. Interplay of Cognitive Abilities and Intellectual Growth in Elementary Students. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 2024, 3(3), 41–44.
9. Ashurov R.R. O'quv faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatining intellektual operatsiyalarini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №2. B. 639-646.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.